

IKKINCHI TOG'LI QORABOG' MOJAROSINI HAL ETISHDA TURKIYANING ROLI

Gulboyeva Munavvar Ehpulatovna ¹

¹ Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Xalqaro munosabatlar
va jahon siyosati" mutaxassisligi 2-kurs magistranti

e-mail: gulboyevamunavvar@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 09.01.2025

Revised: 10.01.2025

Accepted: 11.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

Janubiy Kavkaz,
Turkiya, Ozarbayjon,
Ikkinchi Qorabog'
urushi, harbiy
hamkorlik, Shusha
deklaratsiyasi, UAV,
milliy manfaat.

Maqolada Janubiy Kavkaz mintaqasidagi hududiy nizolarni hal etsihdagi Turkiyaning ishtiroki haqida so'z boradi. Ma'lumki, Turkiya mintaqaviy aktor sifatida geosiyosiy beqarorliklarni hal etishda doimo o'z munosabatini bildirishga harakat qilgan. Xususan, Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida 2020-yilgi Ikkinchi Tog'li Qorabog' urushining butkul Boku foydasiga hal etilishida muhim rol o'ynadi deyish mumkin. Anqaraning bu ishtiroki Ozarbayjonga siyosiy, harbiy va moddiy-texnik tomondan yordam ko'rsatganligi bilan izohlanadi. Qolaversa, Turkiyaning mazkur mojaroni hal etishdagi ishtirokiga muhim omil, uning Ozarbayjon bilan yaqin etnik va tarixiy aloqalari hamda Janubiy Kavkazdagi kengroq milliy manfaatlaridir.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo siyosiy sahnasida yuz berayotgan global va keskin o'zgarishlar va ko'plab boshqa ziddiyatli voqealar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga bevosita o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shunday murakkab tendensiyalar rivojlangan bir davrda davlatlar o'rtasida har bir sohada, xoh u iqtisodiy, siyosiy, xoh madaniy yoki iqtisodiy bo'lsin, do'stona aloqalarni o'rnatish, rivojlantirish, mustahkamlash xalqaro munosabatlar ishtirokchilaridan siyosiy irodani talab etadi. Bunday sharoitda har bir davlat ittifoqchilik xususiyatlariga ega munosabatlarni yo'lga qo'yishga intiladi. Agarda bu munosabatlar tili, dini, urf-odati, etnik kelib chiqishi yaqin davlatlar o'rtasida qurilsa, bu aloqalar dunyo geosiyosiy maydonida yanada kengroq tus oladi va jadal rivojlanadi.

Ma'lumki, ikki qardosh xalq, Turkiya va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar ko'p qirrali va strategik xususiyatga ega. Ikki davlat o'rtasida "Bir millat, ikki davlat" shioriga

asoslangan munosabatlar siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy kabi barcha sohalarda rivojlanib bormoqda. Turkiya (1991 yilda) Ozarbayjonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan davlat sifatida doimo Ozarbayjonni qo'llab quvvatlab keladi. Turkiyaning Ozarbayjonni qo'llab quvvatlashining bir jihati etnik mansublilik yoki tarixiy aloqalar tufayli bo'lsa, ikkinchi jihati Janubiy Kavkaz mintaqasida barqarorlikka erishish yon qo'shni sifatida Turkiyaning milliy manfaatlari va xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, Janubiy Kavkaz mintaqasi boshqa mintaqaviy va tashqi kuchlar, xususan, Rossiya, Eron, Qo'shma Shtatlar, Yevropa Ittifoqi kabi yirik aktorlarning raqobat maydoniga aylangani sir emas va tabiiyki, bunday sharoitda Turkiya o'zining mintaqaga nisbatan siyosatini yanada mustahkamlashga intiladi. Umuman olganda, Janubiy Kavkaz mintaqasi Turkiya uchun geosiyosiy ahamiyatga molik mintaq, shu sababli ham Turkiya mintaqada o'zining mavjud ta'sirini doimo kuchaytirish, keng yoyish hamda saqlab qolishga muntazam harakat qilmoqda. Xususan, Turkiyaning Ikkinchi Tog'li Qorabog' urushida Ozarbayjonning harbiy muvaffaqiyatga erishishiga o'z hissasini qo'shganligini ta'kidlash joizdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Qorabog' mojarosi qariyb o'ttiz ikki yil mobaynida davom etgan bo'lsa-da, 2020-yil 27-sentabrda boshlangan Ikkinchi Qorabog' urushi Janubiy Kavkaz geosiyosiy landshaftida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Operatsiyani amalga oshirish sabablari va uning Ozarbayjon foydasiga xulosasi milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi omillar bilan izohlanishi mumkin. Birinchidan, so'nggi yillarda Ozarbayjon tomonidan urush varianti tez-tez tilga olinib boshlandi, ayniqsa deyarli barcha muzokaralar muvaffaqiyatsizligi bu kabi xabarlar keng tarqalishiga zamin yaratdi.

Ikkinchidan, Ozarbayjonning siyosiy maqomi 1990-yillarning boshidan beri mustahkamlangan va Ozarbayjon armiyasi so'nggi yillarda yaxshi o'qitilgan, intizomli, professional va yaxshi jihozlangan kuchga aylangan edi. Uchinchidan, Ozarbayjonni Qorabog'da g'alabaga olib kelgan asosiy omil, shubhasiz, uning Armaniston ustidan harbiy ustunligi edi. Ikki davlatning harbiy kuchlari va qurol tizimlari birlashtiriladigan bo'lsa, bu ustunlikni yaqqol ko'rish mumkin.

Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi 44 kun davom etgan mojaro oqibatida ikki tomondan ham minglab qurbonlar berildi, shuningdek sezilarli hududiy o'zgarishlarga olib keldi. Urush dinamikasining markaziy qismida mintaqaviy kuchlar, xususan Turkiya va Rossiyaning ishtirokini ta'kidlash joiz. Ayniqsa, Turkiyaning faol ishtiroki urush natijalari va urushdan keyingi tartibni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Bu urushda Turkiya

Ozarbayjonni siyosiy, harbiy va diplomatik jihatdan qo'llab-quvvatlagan eng muhim davlat bo'ldi. Shu bilan birgalikda, Turkiya o'zining mintaqada mavjudligini Rossiya va Eron kabi boshqa global va mintaqaviy o'yinchilarga yanada yaqqol isbotladi.

Ozarbayjonning hal qiluvchi g'alabasi ortida turgan omillar:

moddiy texnik ta'minot

Ozarbayjonning Ikkinchi Qorabog' mojarosidagi g'alabasining asosiy sabablari sifatida birinchi navbatda Turkiya tomonidan Bokuga yetkazib berilgan uchuvchisiz uchoq (keyingi o'rinlarda UAV(unmanned aircraft vehicle) deb yuritiladi) lar tilga olinadi. Ta'kidlash joizki, Turkiya so'nggi yillarda mislsiz texnik yutuqlarga erishgani rost va bu haqda bir qator nashriyotlarda xabar berilgan. Xususan, "Financial Times" gazetasi Turkiya UAV sohasida AQSh, Isroil va Xitoyga raqobatchi ekanligini ta'kidladi. Germaniyaning "Die Welt" gazetasi Turkiyaning UAV texnologiyasida yetakchi davlatlardan biriga aylanganini va harbiy muvaffaqiyatga erishganini yozdi. Frantsiyaning "Liberation" nashri esa UAVlarni Turkiyaning qudrati va mustaqilligi ramzi sifatida aks ettirdi. Rossiya matbuotida Qozog'istonning Xitoyning uchuvchisiz havo vositalaridan voz kechishi va "Bayraktar TB2" sotib olishi haqida xabarlar paydo bo'ldi. AQShdan "Forbes" jurnali turk PUAlarini "sehrli o'qlar", "Foreign Policy" nashri "uchar zirhli hayvonlar" va ispan "El Pais"ni nashri "osmonning yangi egalari" deb ta'rifladi (<https://www.aa.com>, 2021).

Ba'zi olimlar esa turk dronlarini Turkiya tashqi siyosatining bir vositasi sifatida talqin qiladi. Jumladan, Oslodagi Tinchlik Tadqiqot Instituti olimlari Bruno Oliveira Martins, Pinar Tank, va Beste Ishleyen Turkiyani so'nggi 3-5 yil ichida tez sur'atlar ishlab chiqarilayotgan "dronlar" deb nomlanuvchi harbiy uchuvchisiz havo vositalarining yangi global eksportchisi deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, Turkiyada ishlab chiqarilgan uchuvchisiz samolyotlar Ukrainaning Rossiya bosqiniga qarshi qarshilik ko'rsatishida va Ozarbayjonning 2020 yilgi Tog'li Qorabog' urushidagi muvaffaqiyatida muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, Efiopiya, Liviya va Qirg'iziston-Tojikiston chegarasida kechgan mojarolarda ulardan foydalanish munozara bilan o'ralgan bo'lsada, Turkiya tomonidan ham mamlakat ichkarisida va xorijda kurd kuchlarga qarshi operatsiyalarda dronlardan foydalanilganligini ta'kidlash lozimdir. Mazkur texnologiya Turkiya hukumatiga tashqi siyosatining yangi vositasini taqdim etibgina qolmay, balki uni mintaqaviy kuchayib borayotgan kuch sifatida ham tanitdi va mintaqaviy va xalqaro siyosatda, jumladan, boshqa rivojlanayotgan kuchlar tomonidan ta'qib qilinadigan model sifatida ko'plab ta'sirlarga ega bo'ldi deyish mumkin (Oliveira B. M., 2023).

Umuman olganda, Turkiya harbiy dron texnologiyalarining asosiy xalqaro eksportchisiga aylandi, shu bilan birga, yangi hamkorliklar o'rnatish va yangi geosiyosiy maydonlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Stokgolm xalqaro tinchlik tadqiqot instituti nashrining xabar berishicha, (Vezeman P. D., 2021) Armaniston ham, Ozarbayjon ham muhim qurol sanoatiga ega emasligi sababli, ikkalasi ham o'z arsenallarini kengaytirish va rivojlantirishda yordam berish uchun tashqi yetkazib beruvchilarga tayanib qolishgan. Garchi qurol yetkazib berish bo'yicha boshqa davlatlar, Rossiya, Isroil, Belarusiya Turkiyadan ko'ra ko'proq ulushga ega bo'lsa-da, Turkiya ham Ozarbayjonni moddiy texnika ta'minotchisi sifatida muhim rol o'ynadi. Xususan, 2011-2020-yillar davomida Ozarbayjonning asosiy qurol importining 2,9 foizi Turkiya hissasiga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkiyadan Ozarbayjonga zirhli patrul mashinalari, raketa artilleriyasi, raketa va qurolli uchuvchisiz havo vositalari yetkazib berildi. 2020 yilgi urushdan biroz oldin yetkazib berilgan qurolli UAVlar MAM-L boshqariladigan bombalar bilan qurollangan kamida beshta "Bayraktar-TB2" UAVni o'z ichiga olgan. Urush paytida ushbu UAVlardan foydalanish xalqaro miqyosda katta e'tiborga sazovor bo'ldi. Ozarbayjon 2020 yilgi urushda Turkiya tomonidan yetkazib berilgan boshqa asosiy qurollardan foydalangani va qanday qilib qo'llagani noma'lum bo'lsa-da, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning ishtiroki bor. Masalan, Turkiya tomonidan yetkazib berilgan "TRG-300" ko'p raketa tashuvchi qurilmalari Ozarbayjonning 2020-yilda Tog'li Qorabog'dagi hujumi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan pozitsiyalarda joylashgani xabar qilingan. Ochiq manbali hisobotlar shuni ko'rsatadiki, dronlar juda ko'p sonli arman tanklari, jangovar mashinalari, artilleriya bo'linmalari va havo hujumiga qarshi mudofaa vositalarini o'chirishga hissa qo'shgan. Ularning Tog'li Qorabog'ning chuqur orqa qismiga kirib borishi armanlarning ta'minot liniyalari va logistikasini ham zaiflashtirdi, bu esa keyingi janglarda Ozarbayjonning muvaffaqiyatiga yordam berdi. Ayniqsa, Turkiyada ishlab chiqarilgan "Bayraktar TB2", UAV platformalarining ko'p qirraliligini namoyish etdi (Shaan Sh., 2020).

Harbiy hamkorlik

Ta'kidlash joizki, Ozarbayjonning Qorabog' urushidagi muvaffaqiyati kaliti faqatgina Turkiyaning dronlari deyish xato bo'ladi. Ma'lumki, urushda faqat ustun qurol va jihozlar yordamida g'alaba qozonib bo'lmaydi. Inson omili va tashkiliy salohiyat yuqori bo'lsa, natija ham kutilgandek bo'lishi hammaga ayon. Siyosatshunos, olim Haldun Yalchinkaya ta'kidlashicha (Yalchinkaya H., 2021), Sovet Ittifoqi parchalanganidan ko'p o'tmay Turkiya boshqa bir qancha sobiq Sovet respublikalari qatori Ozarbayjon qurolli kuchlarini qayta

qurishga kirishdi. Ozarbayjonning yaqinda Armaniston ustidan qozongan g'alabasi ana shu o'ttiz yillik sa'y-harakatlarning natijasi bo'ldi.

Darhaqiqat, ikki davlat o'rtasida turli sohalarda imzolangan shartnomalar mavjud, ayniqsa, harbiy sohada imzolangan shartnomalar Ozarbayjonning urushda g'alaba qozonishida yana bir muhim omil bo'ldi. Xususan, Turkiya va Ozarbayjon o'rtasida 1996-yil 10-iyunda "Harbiy ta'lim, texnik va ilmiy hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma imzolandi (Veliyev C., 2023). Amerikaning RAND global siyosiy tahlil markazining xabar berishicha (Larrabee F. S., 2003), mazkur shartnoma imzolanganidan so'ng Turkiya Ozarbayjon armiyasining NATO standartlariga moslashtirishda qo'llab-quvvatlagani kuzatilgan. Shuningdek, Ikkinchi Qorabog' urushi oldidan ham Turkiyada ta'lim olgan ozarbayjonlik askar va zobitlar professionallik va jangovar ruh hamda zarur ko'nikmalarga ega bo'ldi. Shuningdek, urush boshlanishidan oldin ham Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev 2020-yil avgust oyida Ozarbayjonda o'tkazgan qo'shma mashg'ulotlardan so'ng Ozarbayjon armiyasi turk armiyasi modeliga o'tishini ma'lum qilgan edi. Ikkinchi Qorabog' urushida erishilgan natijalar yuqorida ta'kidlangan jarayonni yanada tezlashtirdi deyish mumkin (Veliyev C., 2022).

Bundan tashqari, davlatlar o'rtasida 2010 yilning 16 avgustida imzolangan "Strategik hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida"gi shartnoma (<https://www.resmigazete.gov.tr>, 2011) ham mavjud. Shartnoma Ozarbayjon nomidan Prezident Ilhom Aliyev, Turkiya nomidan esa 11-prezident Abdulloh Gul tomonidan imzolangan. Mazkur shartnomaning 2-moddasiga ko'ra, tomonlardan biri uchinchi davlat yoki bir guruh davlatlar tomonidan qurolli hujumga yoki harbiy aralashuvga duchor bo'lgan taqdirda, tomonlar o'zlarining mavjud imkoniyatlari doirasida barcha zarur choralarni, shu jumladan, harbiy vositalar va imkoniyatlardan foydalanishni amalga oshiradilar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 51-moddasida e'tirof etilgan shaxsiy yoki jamoaviy mudofaa huquqini amalga oshirish uchun ular bir-biriga yordam berishga kelishib oldilar. Ushbu yordamning shakli va hajmi tomonlar tomonidan zudlik bilan belgilanishini nazarda tutadi (<https://www.dailysabah.com>, 2023).

Hamkorlikning yangi bosqichi: Shusha deklaratsiyasi

2021-yil 15-iyun kuni Ozarbayjonning Qorabog' shahridagi Shusha shahrida ikki davlat prezidentlari tomonidan "Turkiya Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shusha deklaratsiyasi" imzolandi. Deklaratsiya Anqara va Boku o'rtasida imzolangan "ittifoq" so'zini o'z ichiga olgan birinchi hujjat hisoblanadi. Shusha deklaratsiyasi ikki davlat o'rtasidagi yaqinlashuvning yangi

yoʻnalishini belgilab beradi. Bu yoʻl birinchi navbatda xavfsizlik va mudofaa doirasida shakllangan. Deklaratsiyada qurolli kuchlarning umumiy manfaatlarni himoya qilish uchun birgalikda harakat qilish, suverenitet va hududiy yaxlitlik kabi milliy manfaatlarga asoslangan masalalarda bir-biriga yordam berish, xavfsizlik muammolarini hal qilishda birgalikdagi saʼy-harakatlarni taʼminlash doirasida muvofiqlashtirilgan. Shuningdek, mazkur deklaratsiyada qurolli kuchlarni modernizatsiya qilish va qoʻshinlarning oʻzaro hamkorligini oshirish boʻyicha birgalikdagi saʼy-harakatlar ham qayd etilganligini koʻrish mumkin. Bundan tashqari, deklaratsiyada terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirish, ommaviy qirgʻin qurollarini tarqatish, uyushgan jinoyatchilik va giyohvand moddalar savdosi kabi sohalarida birgalikda kurash olib borish haqida xabardorlikni oshirish ham oʻrin olgan (<https://coe.mfa.gov>, 2021).

Birodarlik muhabbatidan yuqori turuvchi milliy manfaat

Yuqorida taʼkidlanganidek, Janubiy Kavkaz mintaqasi Turkiya tashqi siyosatida alohida ahamiyatga ega. Xalqaro munosabatlar tizimida har bir davlat uchun uning milliy manfaatlari har narsadan ustun. Xalqaro tizimning tabiati taqozo etgani uchun xalqaro maydonda har bir davlat imkon va imtiyozlardan maksimal darajada foydalanishga harakat qiladi. Baʼzi tahlilchilarning fikricha, Turkiyaning Ozarbayjon bilan yaqin aloqasi mavjud, ammo bu yaqinlik Anqara manfaatidan ustunlikka ega emas. Jumladan, Istanbul iqtisodiyot va tashqi siyosat tadqiqotlari markazi (Edam) rahbari Sinan Ulgenning “Al-Jazira” nashriga bergan intervyusida taʼkidlashicha, soʻnggi Usmonli imperiyasi davrida 1.5 millionga yaqin armanlar turklar tomonidan oʻldirilgan va bu Armaniston tomonidan “genotsid” deb baholanadi, ammo Turkiya buni rad etadi. Shuningdek, Turkiya Ozarbayjonning mintaqadagi avvalgi hududiy nizolar bilan bogʻliq iddaolarini qoʻllab quvvatlamagan. Aynan, 2008 yilda Turkiya-Armaniston oʻrtasidagi diplomatik aloqalar muvaffaqiyatsizlikka uchrashi Turkiya-Ozarbayjon munosabatlari uchun suv havzasi boʻldi deb taʼkidlaydi siyosatchi (Patrick K., 2020). Bundan tashqari, Begin-Sadat strategik tadqiqotlar markazi tahlilchisi Emil Avdaliani fikricha, Turkiyaning Ozarbayjonni qoʻllab-quvvatlashi keskin oshgan va buning zahirida Anqaraning Yaqin Sharq va Oʻrta yer dengizida oʻz taʼsirini kuchaytirish hamda muhim energiya va savdo yoʻllariga kirish boʻlishi mumkin (Avdaliani E., 2020).

XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Ikkinchi Qorabogʻ urushida Turkiyaning Ozarbayjonni qoʻllab-quvvatlashi strategik, tarixiy, iqtisodiy va siyosiy omillarning kombinatsiyasi bilan izohlash mumkin. Etnik va madaniy aloqalar ikki davlat

munosabatlarining ajarmas xususiyati bo'lsa, geosiyosiy strategiya jihatdan Turkiya Ozarbayjonni qo'llab-quvvatlab, Janubiy Kavkazda o'z ta'sirini kuchaytirishni, boshqa kuchlarning, xususan, Rossiya va Eronning mintaqadagi mavjudligini muvozanatlashni maqsad qiladi. Shuningdek, Qorabog' mojarosi Turkiyaga o'zining harbiy salohiyatini, jumladan, Ozarbayjonning harbiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynagan ilg'or dron texnologiyasini namoyish qilish imkoniyatini berdi. Bu Turkiyaning o'z qo'shnisi va undan tashqarida natijalarni shakllantirishga, xalqaro obro'sini oshirishga qodir mintaqaviy kuch sifatidagi maqomining yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Advaliani, E. (2020, November 13). Turkey's Win-Win Strategy in the Nagorno-Karabakh Conflict. Retrieved from <https://besacenter.org/turkey-nagorno-karabakh-strategy/>: <https://besacenter.org>
2. Larrabee F. S., I. O. (2003). Turkish foreign policy in an age of uncertainty. Santa Monica: RAND.
3. Oztop M. Harp tarihi ve güç dengesinde değişimin aktörü: Türk SİHA'ları. Retrieved from <https://www.aa.com>
4. Olivveira B. M., T. P. (1 2023, January 1). Turkish drones as a foreign policy. Retrieved from <https://www.prio.org/publications>
5. Patrick K. (2020, november30). What's Turkey's role in the Nagorno-Karabakh conflict? Retrieved from <https://www.aljazeera.com>
6. Shusha Declaration on Allied Relations between the Republic of Azerbaijan and the Republic of Turkey. Retrieved from <https://coe.mfa.gov>
7. Shaan SH., R. U. (2020, december 8). The air and missile war in Nagorno-Karabakh: Lessons for the future of strike and defense. Retrieved from <https://www.csis.org/analysis/air-and-missile-war-nagorno-karabakh-lessons-future-strike-and-defense>
8. Türkiye cumhuriyeti ile Azerbaycan cumhuriyeti arasında stratejik ortaklık ve karşılıklı yardım anlaşması. Retrieved from <https://www.resmigazete.gov>
9. Veliyev C. (2022). Azerbaijan-Türkiye military cooperation: One nation, one army. Retrieved from <https://www.dailysabah.com/opinion/op-ed/azerbaijan-turkiye-military-cooperation-one-nation-one-army>.

10. Veliyev C. (2023, November 10). Azerbaijan-Türkiye military relations in the shadow of the negotiations with Armenia. (D. H. Parker, Ed.) Retrieved from <https://dayan.org/file-download/download/public/18014>: <https://dayan.org>

11. Vezeman P. D., K. A. (2021). Arms transfers to conflict zones: The case of Nagorno-Karabakh. Stockholm, Sweden: Stockholm International Peace Research Institute. Retrieved from <https://www.sipri.org/commentary/topical-backgrounder/2021/arms-transfers-conflict-zones-case-nagorno-karabakh>

12. Yalchinkaya, H. (2021, January 21). Turkey's overlooked role in the second Nagorno-Karabakh war. Retrieved from <https://www.gmfus.org/news/turkeys-overlooked-role-second-nagorno-karabakh-war>

